

JAMOL KAMOL SHE'RIYATINING O'ZBEK ADABIYOTIDA TUTGAN O'RNI

Olim Usmonov

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti o'qituvchisi, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Sattorova Sitorabonu Muso qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti magistranti

Annotatsiya: Adabiyotning ijtimoiy hayotda tutgan o'ri beqiyos. Har qanday millat ma'daniyati, ma'naviyatining, ma'rifatining tutib turuvchi asosiy ustuni shu yurtning, shu millatning adabiyot sohasidagi shaxslari, yozuvchi, shoir, olimlaridir. Ushbu maqolada ana shunday shoirlarimizdan biri Jamol Kamol she'riyatining o'zbek adabiyotida tutgan o'ri yoritilib berilgan.

Аннотация: Роль литературы в общественной жизни несравнима. Основными столпами культуры, духовности и просвещения любого народа являются литераторы, писатели, поэты, ученые этой страны и народа. В данной статье освещается роль одного из наших поэтов Джамала Камала в узбекской литературе.

Abstract: The role of literature in social life is incomparable. The main pillars of any nation's culture, spirituality, and enlightenment are the literary figures, writers, poets, and scientists of this country and nation. This article highlights the role of one of our poets, Jamal Kamal, in Uzbek literature.

Kalit so'zlar: Yuksak, ma'naviyat, benazir, adabiyot, xalq, e'tirof, o'zbek she'riyati, siymolar, ulug', jamiyat.

Ключевые слова: Высокий, духовность, несравненный, литература, народ, признание, узбекская поэзия, деятели, великие, общество.

Key words: High, spirituality, peerless, literature, people, recognition, Uzbek poetry, figures, great, society.

Adabiyotning jamiyat hayotida tutgan o'ri bag'oyatda buyuk. Bu gapni necha yillik tajribaga ega insonlar ta'kidlashadi. Dunyodagi barcha fanlar bir taraf bo'lsa, adabiyot bir taraf. Barcha fanlar taningga xizmat qiladi, adabiyot joningga, ruhingga. Shu ma'noda, adabiyot – ma'naviyat fani, bobolarimiz iborasi bilan aytganda, ilmi adab. Adabiyot ana shunday ezgu vazifaga xizmat qiladi.

Aabiyot atalmish ana shunday muhtasham bo'stonda ulug' yozuvchi-shoirlar bor, ulug'vor yozilmalar bor. Biz hozir shu kabi benazir shoirlarimizdan biri bo'lgan O'zbekiston xalq shoiri Jamol Kamol haqida, uning ijodi haqida hamda she'riyatining o'zbek adabiyotida tutgan o'rni haqida to'xtalib o'tamiz.

Jamol Kamol 1938 yil 26 aprelda Buxoro viloyati, Shofirkon tumanidagi Chikaron qishlog'ida tug'ilgan. O'zbekiston xalq shoiri (1992). Buxoro pedagogika institutining filologiya fakultetini tamomlagan (1959). Dastlabki she'riy to'plami — «Olam kirar yuragimga» (1968). «Cho'qqilarga yog'ildi yog'du» (1971), «Tosh tug'yon» (1973), «Hasan va oy» (1974), «Quyosh chashmasi» (1975), «Dostonlar» (1978), «Tafakkur» (1979), «Qadah» (1980), «Suvaydo» (1983), «Umidli dunyo» (1988) kabi she'riy asarlar muallifi. Jaloliddin Rumiyning «Masnaviy»si, Ibn Sino, V. Shekspir, Bualo, A. S. Pushkin kabi jaxrn adabiyoti siymolarining asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan.

Ijodiy faoliyati davomida bir necha yil Buxoro institutida chet ellar adabiyotidan dars bergan. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot institutida ishlagan. Akademik Izzat Sulton rahbarligida ikki jildlik «Adabiyot nazariyasi», ikki jildlik «O'zbek adabiy tanqidi tarixi» kitoblarini yozishda qatnashgan. «Lirik she'riyat», «Tarixiy drama» degan ilmiy risolalari nashr etilgan. Kitoblari soni qirqdan oshgan. Ularning adadi masalasi ko'pchilikka ma'lum. Masalan, «Suvaydo» va «Umidli dunyo» kitoblarim har biri yigirma ming nusxada bosilgan. «Jaloliddin rumiy» romani qirq besh ming nusxada nashr etilib, o'n kunda sotilib bitgan. Bu gaplar bugun afsonaga o'xshaydi.

Jamol Kamol ijodiyotining butun sarmoyasi Haqiqat va Hurriyat dardidir. Uning dil dardlariga qarshi borganini, eng ulug' armonlariga xiyonat qilganini ko'rmaymiz. Shuning uchun shoir she'riyatida ko'pchilik qalamkashlarga xos ikki qiyofalilik ofati ko'zga tashlanmaydi.

Ma'lumki, ijodkorning ulug'ligi yosh bilan emas, adabiyot ummonida chekkan zahmati, mehnat-mashaqqati bilan baholanadi va bu bahoni unga xalq – muxlislar beradi. O'zbekiston xalq shoiri Jamol Kamol iste'dodi, qat'iyati, she'riyatga bo'lgan sadoqati va pok shaxsiyati tufayli o'quvchilarning baland e'tirofiga sazovor bo'lganligini ko'rish mumkin.

Jamol Kamol mansub avlodning adabiyotimizdagi o'rnini anglash uchun 40-50 yillar kitoblarini varaqlab ko'rish lozim. Yarim asrcha avval bu kitoblar, xususan, 50-yillardan boshlab «o'zbek she'riyati siymolari»ga aylangan shoirlarning saylanmalari bilan tanishib chiqib, yuzaga kelgan adabiy ahvolning nechog'li ayanchli va nochor bo'lganini ko'rib, larzaga tushish mumkin. «Siyosiy lirika» aqidasi to'liq bosh eggan o'sha davr she'riyatining yolg'on-u soxta g'oyalar botqog'iga g'arq bo'lganidan achinadi kishi. O'sha yillarda faqat siyosat tarozisiga mos kelgan kolxoz, traktor, zavod, fabrika, qurilish, paxta so'zlari to'lib-toshgan she'ru dostonlar olqishlanar, ko'klarga ko'tarib maqtalar, yuksak mukofotlar bilan taqdirlanar edi. 20-30 yillarda adabiyotga kirib kelgan, ammo ustozlari qatl etilganiga guvoh avlodning eng umidli vakillari ruhiyatini mavjud siyosat ko'lkasi to'la chulg'ab olgan edi.

Jamol Kamol bizni Mashriqu Mag'ribning ikki yuksak ustuni: Mavlono Jaloliddin Rumiya va Vilyam Shekspir dunyosi bilan tanishtirdi. Ustozning boshqa tarjimalarini sanab o'tirishga hojat yo'q. Birgina Mavlono va Shekspir asarlarining tarjimasiga singgan benazir mehnatining o'zi Jamol Kamol tarjima maktabi haqida so'z yuritishga asos bo'ladi.

Mustaqillik yillarida ham Jamol Kamol ijodi juda sermahsul bo'ldi: "Asr bilan vidolashuv" (Saylanma, 2007), "Yana ko'nglimda uch oy" (2010), "Safar daftari" (2012) singari bir qator asarlari yuzaga keldi. Jaloliddin Rumiyning "Masnaviy ma'naviy" (2002-2004), Hazrati Alining "Devon"i (2006), Farididdin Attorning "Mantiqut tayr" (2006) hamda "Ilohiynoma", "Asrornoma", "Pandnoma va bulbulnoma", "Hikmatlar" (2007-2012), Abdurahmon Jomiyning "Gulshaningda so'lmasin gul" (2008), Vilyam Shekspirning "Sonetlar" (2009), Alisher Navoiyning "Foniy gulshani" (2011) kabi jahon mumtoz adabiyotidan jami yigirma yettita asarni ona tilimizga o'girdi. Bundan tashqari, R. Fishning "Jaloliddin Rumiya't, S.Ulug'zodaning "Firdavsiy" kabi romanlari tarjimasini ham Jamol Kamol qalamiga mansubdir. U publitsist sifatida "Makkayi Mukarrama, Madinayi Munavvara" (1992) asarini yaratib, islomiy ma'rifat va ma'naviyatning rivojiga hissa qo'shdi.

Jamol Kamol adabiyotimizdagi munosib xizmatlari uchun 1992 yilda "O'zbekiston xalq shoiri" unvoniga sazovor bo'ldi.

Jamol Kamolning so'nggi yillardagi jamiyatimizda kechgan va kechayotgan jarayonlarga bag'ishlangan publitsistikasi haqida gapirmaslikning iloji yo'q. Hushyor kuzatuv, teran tahlil, mamlakat hayotiga faol doxillik bor bu asarlarda.

Hayot hech kimning umrini mangu ushlab turmaganidek, xalqimizning ardoqli insoni O'zbekiston xalq shoiri, tarjimon va adabiyotshunos olim Jamol Kamol 2022-yilning 27-sentabrida 84 yoshida vafot etdi.

Hayotda har kim har xil umr kechiradi. Xalqi uchun ulkan ma'naviy meros qoldirgan jonkuyar qahramonlarni esa xalqi hech qachon unutmaydi. Bizning qahramonimiz ham o'zbek adabiyotiga, o'zbek she'riyatiga ulkan hissa qo'shib tarixda qoldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirzayev S. XX asr o'zbek adabiyoti. T-2004
2. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. T-2002
3. Sodiq S. Yangi o'zbek adabiyoti. Ma'ruzalar matni, T-1999
4. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-sheriyati/zamonaviy-o-zbek-she-riyati/jamol-kamol-1938>
5. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/jamol-kamol-xurshid-davron-koksi-kuyik-shoir.html>
6. Umarov H. Adabiyot nazariyasi. T-2004
7. O'zbek milliy ensiklopediyasi. T-2000, 5-tom.